

**PIRLS XALQARO TADQIQOTI O'TKAZILISH DAVRIYLIGI TAHLILI
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH
DASTURIGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM
OMILLARI MAZMUNI**

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna

GulDU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"

kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

[*dildorautanbayeva28@gmail.com*](mailto:dildorautanbayeva28@gmail.com)

Annotatsiya: ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturi o'tkazilish davriyligi tahlil qilingan. Shuningdek, PIRLS va ePIRLS xalqaro baholash dasturlariga o'tish masalalari, O'zbekiston Respublikasining tadqiqotda qatnashishi masalalari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, ePIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, xalqaro baholash dasturlari, o'qish savodxonligi, matnni tushunish, onlayn o'qish, sayt, boshlang'ich sinf.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarorini keltirish mumkin. Bu qarorda xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun, (TIMSS) - 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun, (PISA) -15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun hamda (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha aniq va zarur bo'lgan yo'nalishlar ko'rsatib berilgan. O'qish savodxonligini tadqiq etishda ta'lim

sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti (Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro tadqiqoti) mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan.

2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakalarini baholash sinovlariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlang'ich darajada matnni tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. O'rtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf o'quvchilari o'qish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etishdi. Shuningdek, bu ikkala mamlakatlik o'quvchilarning to'rtidan bir qismi matnni tushungan o'quvchilar hikoya syujetlari va nisbatan murakkab matnlarda berilgan ma'lumotlarni izohlash, birlashtirish va baholash ko'nikmalariga ega. Hong Kong, Irlandiya, Finlandiya, Polsha va Shimoliy Irlandiyalik o'quvchilarning beshdan bir qismi matnni mukammal darajada tushuna olish malakasini ko'rsatishdi. 2016-yilda muqobil tanlov sifatida ePIRLS tadqiqoti ham joriy etildi. ePIRLS tadqiqotida hozirda tobora ahamiyati oshib borayotgan onlayn o'qish savodxonligiga e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, internet o'quvchilarning ma'lumotlarni olishlari hamda maktab fanlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda asosiy vosita sanaladi. ePIRLS tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy va ijtimoiy sohalarga tegishli mavzularni o'z ichiga olgan, maktabda o'qitiladigan fanlar bo'yicha beriladigan mashg'ulotlarga yaqinlashtirilgan qiziqarli innovatsion

imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, onlayn o'qish ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilm olishida va o'qish savodxonligining oshishida muayyan darajada xizmat ko'rsatadi. PIRLS 2021da tasodify tanlash yo'li bilan tanlab olingan 150 dan 200 tagacha maktabdan 4 000 ga yaqin o'quvchilar ishtirok etdi. PIRLS 2021 400 000 ga yaqin o'quvchi, 380 000 ota-ona, 20 000 o'qituvchi va 13 000 maktabdan ma'lumotlarni to'pladi. 2021-yilda PIRLS xalqaro baholash dasturi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotga dunyoning 60 ta davlati qatnashdi. PIRLS tadqiqoti butun dunyo bo'ylab 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazadi. PIRLS-2021 tadqiqotiga mamlakatimizdan 180 ta maktabdan 6000ga yaqin o'quvchilar va ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari qatnashishdi. Tadqiqot doirasida 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish, tushunish, xulosalar chiqarish, matnlardagi g'oyalar va fikrlarni o'zaro bog'lash darajalarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarish bilan birgalikda o'quv jarayonidagi muhitni aniqlashga qaratilgan so'rovnomalarda qatnashish ham talab etiladi. Shuningdek, ota-onalar ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchining uyidagi muhit va ta'lim muassasasi bilan munosabatlariga oid so'rovnomada qatnashdilar. Tadqiqotda qatnashuvchi maktablar va o'quvchilar Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tasodifiylik tamoyiliga asoslanib tanlab olingan. Ushbu tanlovda ta'lim tili, o'quvchilarning soni va yoshiga ko'ra katta-kichiklik mezonlari ham inobatga olingan. Tadqiqotlar o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o'tkazildi. O'zbekistonning ushbu tadqiqotda ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga o'quvchilar bilimni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi. O'zbekistonda PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi ochildi, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan trenerlar tayinlandi, trenerlarga viloyat va respublika miqyosida seminar treninglar tashkil etildi, respublika miqyosida onlayn vebinarlar o'tkazildi. Respublika miqyosida boshlang'ich sinflarda PIRLSga tayyorgarlik bo'yicha mashq daftarlaridagi matnlar bo'yicha

o'quvchilar xalqaro baholash dasturiga tayyorlandi. PIRLS 2021 testi uchun zarur bo'lgan 12 ta matn va 2 ta ePIRLS topshirig'ini hisobga olgan holda jami 18 ta yangi matn va elementlar to'plami, shuningdek, 2 ta yangi ePIRLS topshirig'i ishlab chiqildi.

PIRLS 2021 tadqiqoti natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi o'quvchilarining o'rtacha o'qish ko'rsatkichi 437 ball ekanligi qayd etildi. 2001-yildan beri IEA PIRLS butun dunyo bo'ylab mamlakatlarga o'qish yutuqlari bo'yicha ta'limni yaxshilash uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini berdi. PIRLS har besh yilda to'rtinchi sinfda o'tkaziladi va PIRLS 2026 trend ma'lumotlarning 25 yilligini belgilaydi. Dunyo okeanlari va uning yashash joylari haqidagi PIRLS 2021 PIRLS topshirig'ida o'quvchilarga marjon riflari haqidagi simulyatsiya qilingan internet veb sayti ko'rsatiladi. Animatsion xarita marjon riflari haqidagi qayerda joylashganligini ko'rsatadi, matn marjon riflari haqidagi xususiyatlarini tasvirlaydi va vedia marjon rifi tomonidan suzayotgan baliqlarning suv osti ko'rinishi taqdim etiladi.

PIRLS 2026 asosiy xususiyatlar.

- To'liq raqamli baholashga o'tishni yakunlaydi.
- Talabalar rangli matnlar bo'ylab aylanib chiqishlari va tugmani bosishlari va savollarga javob berishlari mumkin bo'lgan innovatsion interfeysdan foydalanadi.
- Simulyatsiya qilingan veb-saytlar asosida PIRLS vazifalarini birlashtiradi.
- Uy va maktab kontekstlari haqidagi ma'lumotlarni bog'laydi. Talabalar o'qish yutuqlarigacha o'qishni o'rganadilar.
- Raqamli baholash jarayoni ma'lumotlarini chuqur tushunishga yordam beradi.
- Tasvirlarni avtomatlashtirilgan baholash va qisqa tuzilgan javoblar bo'yicha tadqiqotlarni kengaytiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, PIRLS xalqaro baholash dasturi mamlakatimizning boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish savodxonligi bo'yicha dunyodagi davlatlar ichidagi o'rnini belgilab berar ekan har birimizdan bu jarayonga mas'uliyat bilan yondashishni, ilg'or tajribalardan samarali foydalanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori. 2018-yil 8-dekabr. <https://lex.uz>.
2. Omanova M.A. PIRLS xalqaro dasturi asosida 4-sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish. Maqola. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2020-yil 13-mart.
3. ABOUT PIRLS 2021. PIRLS 2021 INTERNATIONAL RESULTS IN READING. <https://pirls2021.org/results>.
4. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
5. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, 3(25), 159-163.
6. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin. PIRLS-2021 baholash qamrov doirasi. Toshkent-2021
7. COUNTRIES' READING ACHIEVEMENT. PIRLS 2021 INTERNATIONAL RESULTS IN READING. <https://pirls2021.org/results>
8. Туранова, И. (2022). Oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalari) an foydalanish. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 217-219.
9. Ummatkulova, S. S. (2021). A NEW APPROACH TO TEACHING FOLK WORKS IN LYRICAL AND SMALL GENRES. *Экономика и социум*, (2-1), 381-384.
10. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHASHNING AHAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-31.
11. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).